

“O‘zbektelekom” AKning 2020 yil uchun tasdiqlangan biznes-rejasi

“O‘zbektelekom” AK Kuzatuv kengashining 2019 yil 30 noyabrdagi 340-sonli bayonnomasi qarori bilan 2020 yil Biznes rejasi tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 apreldagi PQ-4679-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 16 apreldagi 232-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Kompaniyaning 2020 yil uchun biznes rejasi ko‘rsatkichlari qayta ko‘rib chiqildi.

Telekommunikatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish maqsadida 2020 yil uchun belgilangan loyihamalar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son qarori bilan belgilangan O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tarmoqlarini 2013-2020 yillarda rivojlantirish Dasturiga ko‘ra:

- “Kommutatsiya markazlarini IMS (IP Multimedia Subsystem) texnologiyasi asosida modernizatsiya qilish”;
- “Magistral va multiservis ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini kengaytirish (DWDM)”;
- “Ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazini kengaytirish (Data-sentr)”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 martdaggi PQ-2313-son qarori bilan belgilangan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini 2015-2020 yillarda rivojlantirish manzilli dasturiga ko‘ra:

- “Kommutatsiya tarmoqlarini NGN texnologiyasi asosida kengaytirish”;
- “O‘zmobayl” milliy mobil aloqa operatorining mobil keng polosali ulanish tarmog‘ini modernizatsiya qilish (sharqiy hudud), ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazini tashkil qilish, telekommunikatsiya transport tarmog‘ini DWDM texnologiyasi asosida kengaytirish;
- “O‘zmobayl” milliy mobil aloqa operatorining mobil keng polosali ulanish tarmog‘ini modernizatsiya qilish (g‘arbiy hudud)”;
- “O‘zmobayl” milliy mobil aloqa operatorining tarmog‘ini kengaytirish”;
- “O‘zbektelekom” AK keng polosali ulanish tarmog‘ini kengaytirish”;
- “O‘zbekiston Respublikasining gavjum sayyohlik hududlarida Wi-Fi hududlarini tashkil qilish”.

2020 yilda asosiy faoliyat bo'yicha daromadlarning o'tgan yilga nisbatan 34 foizga, jumladan:

- mobil aloqa xizmatlari 67 foizga;
- ma'lumotlar uzatish va Internet xizmatlari 38 foizga;
- xalqaro telekommunikatsiya xizmatlari 10 foizga;
- boshqa xizmatlar 6 foizga o'sishi rejalashtirilgan.

2020 yil uchun jami xarajatlar o'tgan yilga nisbatan o'sishi 32 foiz miqdorida rejalashtirilgan. Shundan:

- ishlab chiqarish xarajatlari 63 foizga;
- sotish xarajatlari 43 foizga;
- ma'muriy boshqaruv xarajatlari 40 foizga o'sishi;
- boshqa operatsion xarajatlar 98 foizni;
- moliyaviy faoliyat xarajatlari 97 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

2020 yil yakuni bo'yicha sof foyda 8,9 mlrd. so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan.